

ESHQOBIL SHUKUR SHE'RIYATIDA POETIK MAZMUN TAKOMILI

Nosirova Setora Narzulla qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20553910>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Eshqobil Shukur she'riyatining poetik mazmuni tahlil qilingan bo'lib, ijodkor qalamiga mansub "Mangu yurt", "Hurriyat", "Ko'hna yurt haqida yangi she'r", "Ko'pkari", "O'ttizinchi yillar" va boshqa she'rlaridagi xalqona navo, milliy qariyatlar tarannumi tilga olinadi.

Kalit so'zlar: She'riyat, xalqona navo, mavzu ko'lam, "Mangu yurt", "Hurriyat", "Ko'hna yurt haqida yangi she'r", qadriyatlar madhi.

Eshqobil Shukur o'zbek she'riyatiga o'zgacha ovoz, yangi navo, xalqona va milliy ruhga yo'g'rilgan ohanglar bilan kirib kelgan, iste'dodli ijodkorlar silsilasiga mansub shoirlardan biridir. Shoir ijodi majoziy o'xshatishlari, xalqning qadimiy merosini o'ziga singdirgani bilan o'zgacha go'zal bir manzara hosil qiladi. So'fiyona naqlar tasvirlash mahoratida shunday gavdalanadiki, bu hol nazm hamisha ilohiyotdan suv ichajagiga botinda yana bir karra ishonch uyg'otadi. Eshqobil shukur dunyoni obrazli idrok etadigan shoir. Uning she'rlarida insonning noayon tebranishlari, hayotiy kechinmalari, hech kimning hayoliga kelmagan haqiqatlar haqida so'z yuritiladi.

Insonning ruhan ozodligi, qalb kechinmalari badiiy talqin etiladi. Bu borada u badiiy tasvir uchun butun koinot, nabodot, hayvonot olamidan yordam oladi. Tabiat, yil fasllari, daraxtlar, gullar, qushlar hayvonlar kabi borliqdagi jamiki narsalardan obrazli tarzda foydalanadi. Eshqobil Shukur she'riyatining mavzu ko'lami nihoyatda keng: Vatan, xalq, tinchlik, mustaqillik, oila, hayot, turmush falsafasi, tasavvufiy talqinlar, sevgi-muhabbat, bolalik kabi bir qancha mavzularni qalamga oladi ijodkor. Ayniqsa, uning she'riyatida o'zbek xalqining qadimiy an'analari, urf-odatlar, qadriyatlari kabi mavzular katta qismni tashkil etadi. Jumladan, "Chanqovuz", "Suyunchi", "Ko'pkari", "Alla ta'rifi", "Mehrinisoga aytgan allamiz", "Bobodehqon", "Nasiba", "O'tov", "Ro'zg'or butligi", "Chimildiq", "Sumbula", "Kuyovmunchoq", "Potini", "Mehrxon kuni", "Kambag'alning shodligi" kabi she'rlarda faqatgina xalqning turmush tarzi emas, balki ichki holati, ruhiy kayfiyati mohir rassom singari mohirona tasvirlangan. Bundan tashqari shoir she'rlaridan joy olgan "Ho'kizning shoxiga ursa, tubi zirqiraydi", "O'zingdan o'tting – yetting", "Asling bilsang obi-gil", "O'g'liga berdi butun kulcha, menga berdi kiyik kulcha" (bolalar folklori), "Hamtovoq bo'ldimmi yoki it bilan"(It bilan hamtovoq bo'lma), "Bilsa baliq deding, bilmasa Xoliq" kabi qator maqol, ibora va naqlar xalq og'zaki ijodidagi ayrim namunalarining qayta hayotga qaytishiga zamin bo'ladi.

Shoir she'rlaridagi asosiy g'oyalardan biri Vatanga muhabbat, yurt tinchligi hamda mustaqillik shukronasi, qadimiy an'analari kabi muqaddas tuyg'ular tarannumidir. Jumladan uning "Millat vijdoni", "Hurriyat", "Mangu yurt", "Ko'hna yurt haqida yangi she'r", "Mengim momoning yo'qlovi", "Alla ta'rifi", "Ko'pkari", "Suyunchi" kabi she'rlari bunga misol bo'la oladi. Ushbu she'rlarni tahlilga tortar ekanmiz, shoir qalbidagi samimiy niyat, buyuk maqsadlarni guvohi bo'lamiz.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng Eshqobil Shukur ijodida istiqloq, erk-ozodlik, hurriyat mavzulari bo‘y ko‘rsatdi. Ammo shoir boshqa ijodkorlar singari buni shukronalik, faxr-iftixor tuyg‘ulariga to‘lgan so‘zlar bilan ifodalamaidi. Ijodkor o‘z yo‘lidan ketdi, ya‘ni, masalan, bir she‘rida Ona yurt timsolini jondosh Singil obraziga ko‘chiradi va shunday satrlarni keltiradi:

*Tol beshikka to‘danalar taqasan,
Tov boshidan sochalalar sohasan.
Uy to‘rida uling qulliq bo‘lsin-a,
Dil to‘rida qizing qulluq bo‘lsin-a¹.*

Ushbu misralarda shoir singlisi orqali butun bir yurtga, xalqqa murojaat qiladi: “Endi ozodsan, hursan. Beshigingda bolangni halovat bilan tebratasan, elga istaganingcha sochqilar sohasan, endi uyingni to‘rida yotlar emas, uyingning (Yurtning) o‘z egasi bo‘lgan o‘g‘ling o‘tiradi(boshqaradi)” demoqchi. Bu satrlarni shoir xuddi tahlildagidek yozsa ham bo‘lar edi deyishimiz mumkin, ammo u holatda she‘rdagi xalqchil ohangga qo‘shilib ketgan obrazlilik yo‘qolib ketadi. She‘r esa jo‘n bir xabardek quloqqa chalinadi. She‘rning so‘nggi misralari esa shoir qalbida uzoq yillar saqlangan onajon yurtiga mangu niyatdek yangraydi:

*Ot boshida dardim bor, aytib o‘tay,
Eldan niyat qarzim bor, aytib o‘tay:
Xudo qabul qilsin, xush niyat bo‘lsin,
Bolangga bosh davlat Hurriyat bo‘lsin!*

Shoirning “Mangu yurt” she‘ri ham “Hurriyat” she‘rining davomi sifatida yangraydi go‘yo. Biroq shoir shu she‘rda Vatanni “Yangi kelinchak”, “Ayol” va “Ona” timsoli orqali tarix zarvaraqlaridan ulush olganini tasvirleydi. Shoir she‘rida Ona Vatanini shu qadar muhabbat bilan qog‘ozga soladiki, bir yurtning bunchaalar suyuqli va go‘zal bo‘lishiga ishonqiramay buyuk zotlarning nazar qilganini, qadami tekkanini sabab qilib ko‘rsatadi go‘yo: “Hazrati Hizrni ko‘rgan kelinchak”, “Rahmat nurin sochar Malik Yavmiddin”, “Bilmasman, og‘angmi ulug‘ Muhammad” va so‘ngida eng ulug‘ Zotning nazari tekkanini Alloh taoloni eslab o‘tadi: “Iloh manglayingdan o‘pgan hoynahoy...” she‘r yakunlanar ekan, shoir minnatdorlik bildirgandek yana Ona Yurtga yuzlanadi: “Yuraging – erk qushi, Ruhing – haqiqat...” va bu misra xalqimizning azaliy sifatlarini o‘zida namoyon qiladi.

Shoirning keyingi “Ko‘hna yurt haqida yangi she‘r” nomli she‘rida esa Vatan tushunchasi yanada kengayadi. Endi shoir Vatanni dunyodagi bor mavjudotlar timsolida ko‘radi. Vatan surati tuproq, osmon, bayroq, chaqmoq, irmoq, ba‘zan bardosh timsolida gavdalanadi.

*Momolar sirlarin tinglagan tuproq,
Bobolar ko‘kragin ko‘targan osmon.
Pirlarning kaftida ko‘kargan bayroq,
Onalar ko‘zida yig‘lagan doston.
O‘g‘illar ko‘ksida chaqnagan chaqmoq,
Oyqizlar ko‘nglini gullatgan tuyg‘u.
Go‘daklar dilidan boshlangan irmoq,*

¹ ШукуровЭ. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б.160.

*Shoirilar yuragin porlatgan qayg'u.
Daholar manglayin yarqiratgan oy,
Fidolar bag'ridan silqigan bardosh.
Tangri yer yuziga yo'llagan humoy,
Bobotog' bag'rida tug'ilgan quyosh.*

Shoir ushbu she'ri orqali yurtning har qarich yeri ham Vatan, undagi har bir hodisa, har bir unsur Vatanning bir parchasidir, degan g'oyani ilgari surgan. She'rning so'nggida ijodkor yurtni quyoshga tashbeh qiladi. Bu ham shoirning mahorati singari ko'zga tashlanadi, zero quyosh barcha iliqliklarning boshlanmasi va manbayi, barcha yaxshiliklarning timsolidir, bundan tashqari quyosh insonlarni himoya qilib turuvchi mehribon ota timsolida ham gavdalanadi.

Shoir ijodidagi milliy qadriyatlar madhiga yuzlanar ekanmiz, "Chanqovuz", "Ko'pkari", "Alla ta'rifi", "Suyunchi" kabi she'rlarni alohida ta'kidlash lozim. Chunki bu she'rlar zamirida butun boshli xalq o'tmishi, milliy qadriyatlari turibdi. Xossatan, shoirning "Ko'pkari" nomli she'rini misol qilsak.

*"Hayt!" — dedi, uloq ketdi,
O'rtada taboq ketti.
Nogahon el gurillar,
Gurillaydi chang-to'zon.
Yer oynaday zirillar,
Otlarga qoldi maydon².*

O'quvchi "Hayt" so'zini eshitishi bilanoq kimdir uni ko'pkari bo'layotgan olamon ichiga itarib yuborgandek his qiladi o'zini. Ijodkorning so'z qo'llashda naqadar ziyraklik bilan yondashganiga, aynan ushbu so'zni o'yin ichidan qanday qilib "sug'urib" olganiga tan bermay ilojimiz yo'q, albatta. Ushbu so'zdan so'ng esa "o'yin boshlandi"(she'r). O'quvchi o'zini chinakam ko'pkarining qoq o'rtasida his qila boshlaydi. Yozuvchi foydalangan 7 (4+3) bo'g'inli barmoq vaznidagi satrlar esa she'rning shiddatkorligini, o'ynoqiligini, ko'pkari o'yini singari tezkorligini ta'minlab beradi. Bundan tashqari, shoirning hech qayerda uchramaydigan mohirona so'z birikmalari o'quvchi ko'zini quvnatadi. Misol uchun she'rdagi ushbu misralarga e'tibor qaratsak:

*Changakday qo'li bilan
Kuch changallar chavandoz.
Otining yoli bilan
Changni chalar chavandoz.*

Avvalo, satrga marjon donalaridek tizib qo'yilgan "ch" harfi kishini diqqatini tortadi, she'r o'qilishiga yanada zavq bag'ishlaydi. Albatta, o'z o'rnida bu holat she'riy nutqqa musiqiylik, xushohanglik baxsh etgan holda *alliteratsiyaning* go'zal namunasi o'laroq maydonga keladi:changakday, changallar, chavandoz, changni, chalar, chavandoz.

² Шукуров Э. Сочлари сумбул-сумбул. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. –Б.6.

Ikkinchidan, “Kuch changallar chavandoz”, “changni chalar chavandoz” kabi birikmalar, hamda she’rning davomi o’laroq kelgan misralardagi “yer oynaday zirillar”, “muzlab qoldi saraton”, “quyosh qorga botadi” kabi o’xshatishlar va noodatiy so’z qo’shilmalari shoir ijodining asl mohiyatini va darajasini ochib beradi. Aslida, ushbu birikmalar xalq orasida qaysidir hududlarda hali hamon yashamoqda. Ammo shoirning asl niyati bu xalqona birikmalarni butunlay yo’qolib ketmasidan turib yana hayotga, xalqqa qaytarish.

She’rda ko’pkari o’yinidagi jasorat, jonini va otini o’rtaga qo’yib maydonga chiqqan haqiqiy o’zbek o’g’lonlari tasvirlanadi. She’r chavandozning fojeasi bilan yakunlanadi, ya’ni u ko’pkarida otidan ayriladi. Shu nuqtada ijodkor chavandozning ichki ruhiyatini tasvirlar ekan, otidan ayrilish butun dunyodan ayrilish bilan barobar ekanligi badiiy tasvir orqali to’laqonli ochib beriladi. She’rning so’nggida o’zbek xalqining naqadar mehribon ekanligi yaqqol ko’zga tashlanadi. Oti o’lganidan so’ng uyda olti oy aza ochilishi kishi qalbiga ta’sir etmay qolmaydi:

*Endi g’amli eriga
So’z aytmasdan botinib,
Olti oy aza tutar
Chavandozning xotini...*

Shoir ijodidagi yana bir ko’zga tashlanadigan asosiy mavzulardan biri bu mustamlaka tuzum davridagi turg’unlik, erksizsiz, so’zsizlik edi. Garchi dorulamon kunlarda yozilgan bo’lsa-da, ushbu she’rlar alamga, dardga to’la holatda bitilgan. Shoirning “O’ttizinchi yillar” deb nomlangan she’ri bor. Garchi ushbu she’rda qatag’on siyosati nazarda tutilgan bo’lsa ham, ijodkor biror o’rinda na jadidlar ismini, na mustamlaka tuzumning qabih ishlarini eslatib o’tmaydi. Shoir faqatgina qalb kechinmalarini qog’ozga to’kadi. Alamzada va hurkak qalb....

*Kaftlarim toshga to’la,
Otolmagan toshlarim...
Kimga otay? Kimga otay?
Ko’zlarim yoshga to’la
To’kolmagan yoshlarim...
Kimga sotay? Kimga sotay?
Kifflarim boshga to’la
Do’stdan qolgan boshlarim...
Qayga ketay? Qayga ketay?
Ko’nglim quyoshga to’la,
Zanjirband quyoshlarim...
Endi netay? Endi netay?³*

Xo’sh, shoir kaftidagi toshlarni kimga otmoqchi?! Ko’zlarining yoshga to’lishiga, ammo hech kimga ayta olmayotganiga(Kimga sotay?) sabab nima?! Shoir kiftidagi do’stdan qolgan boshlari aslida kimniki edi? Shoir ko’ngliga quyoshlar to’lgan, ammo nega quyoshlar zanjirband?!

³ ШукуровЭ. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарк, 2002. –Б.49.

Hech zamonda zanjirband quyoshni ko'rganmi bu dunyo?! Ushbu she'rni o'qigan har bir she'rxon qalbida, albatta, birinchi galda shu savollar kechadi. Javob esa o'sha olis "O'ttizinchi yillar"da! Qatag'on mashinasining qurboniga aylangan jadidlar fojeasi, dardini aytishga joy topolmagan ma'rifatparvarlar taqdiri, qora xalqning ayanchli qismati xalq tili bilan aytganda, "Og'irning ostidan, yengilning ustidan o'tmagan" holda ehtiyotkorlik bilan tasvirlanadi.

Mustamlaka davridagi fikriy erksizliklar, adabiyotdagi biqiq muhitni shoir birgina birikma orqali ifodalaydi: "zanjirband quyoshlarim". Shu o'rinda shoirning iste'dod qirralari yanada yorqinroq namoyon bo'ladi.

Keyingi tahlilga tortmoqchi bo'lgan she'r bolalarning sevimli va qadimiy o'yini "Potini" haqida. O'yinning asosiy sharti gapirmaslik hisoblanadi. Bir qarashda she'r shunchaki oddiy o'yin tasvirlangan voqeadek gavdalanadi, ammo shoirning ayni "Potini" so'ziga berilgan ta'rifdan so'ng fikrimiz darhol o'zgaradi, endi biz yanada kengroq fikrlay boshlaymiz. Keling, o'sha izohga ko'z tashlasak: "Potini qo'yish – bolalar o'yini. O'yinga qo'shilgan bolalarning hammasi bir so'z ham aytmay, og'zini yumib o'tirishlari shart. O'yinning sharti jimlik va gunglik xuddi turg'unlik zamonidagiday..." Darhaqiqat, she'rni o'qir ekanmiz, o'sha davr muhiti, insonlari bir-bir ko'z o'ngimizda gavdalanadi, ammo hamma – jim!

She'rda qahramon tilining qanoti yo'q, ammo u – jim!

Hatto yuragining (o'zligi) otini xotirasidan chiqardi – bu yerda o'zligini, taarixini, milliy qadriyatlarini unutishga mahkum xalq timsoli gavdalangan – yana Jim. Jim. Ruhi soqov holiga kelib, eldan chiqdi – elni sotti, yana Jim. Bu safar vijdon jim... Barcha gung, jim. Haqiqatni aytadigan til yo'q, erk yo'q!

*Potini-ya, Potini
Tilimni tishlab turib
Chappa qo'ydim otimni.
Jim. Jim. Jim⁴.*

Eshqobil Shukur ijodidagi keyingi mavzu bu haqiqat ustida kurash, odamiylik, insoniylik va mehr-oqibat kabi bebaho tuyg'ular vasfi. Shoir ijodidagi o'ziga xosliklardan yana biri shoir hech qachon "haqiqat taraf bo'linglar, mehribon bo'lish kerak, odamiylikni yo'qotmaslik kerak" kabi jo'n nasihatlar qilmaydi. U har qachon so'zdan ko'ra isbotini keltirib qo'yadi, xolos.

O'quvchi ushbu she'rlarni o'qir ekan, hech qayerida pand-nasihatga duch kelmasa-da, she'rning yakunida o'zi uchun hayotiy xulosa oladi. "Xudbinlik", "Suv", "Buzoqning o'limidan so'ng", "Oltin buzoqcha", "Do'konda", "Kambag'alning shodligi", "O'lim va dunyo", "Qariyaning o'limi haqidagi xabardan so'ng" kabi she'rlar shular jumlasidandir.

Shoir shaxsiyatiga nazar solar ekanmiz, doim haq so'zni aytishga intilgani, birovga yoqish uchun uni maqtash holatlaridan uzoq bo'lganini yaqqol sezamiz. Bu cho'rtkesarlik, dilidagi tilida bo'lish xususiyati janub vohasi insonlariga xos holat, aslida. Shu sababli ham shoir qoniga singib ketgan erksevarlik, haqsevarlik hislatlari doim unga yo'ldosh bo'ldi.

⁴ ШукуровЭ. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарк, 2002. –Б.48.

Afsuski, jamiyatimizdagi ayrim tabaqa vakillari shaxsiyatidan muhim o‘rin egallagan laganbardorlik, haq gapga ko‘z yumishlik, tanish-bilishchilik kabi illatlarni ko‘rgan shoir bunday insonlar orasida o‘zini begona his qiladi. Garchi atrofdagilarga yoqmasa ham haq gapni aytishdan o‘zini qaytarmaydi. Ushbu holatni qalamga olar ekan, shoir bunday insonlar ustidan achinish kayfiyatida “kuladi”, ularga “Siz o‘z yo‘lingizdan qolmang, ammo men ham o‘z yo‘limdan qaytmayman” qabilida muomala qiladi. Shoirning “Sochlari sumbul-sumbul” hamda “Hamal ayvoni” kabi she‘riy to‘plamlaridan joy olgan “Xudbinlik” she‘ri so‘zlarimizning yorqin misolidir:

*Yana chegaradan chiqib ketibman,
Xavotir xurjuni keng orqangizda.
Faqat pul ekilgan... Xudbinlik o‘sgan,
Gul izlab yuribman tomorqangizdan.
Yana chegaradan chiqib ketibman...
Tilingiz achishar kuygan qo‘l kabi,
Jilmayib turardi mening chehramda
Mangu qovjiragan haqiqat labi...⁵*

Ushbu she‘rni o‘qigan har bir kitobxon o‘z hayotigadi xudbin va laganbardor mansabdorlarni, ikkiyuzlamachi insonlarni ko‘z oldiga keltiradi. Ich-ichida yig‘ilib qolgan alamli so‘zlarni she‘r orqali tashqariga chiqargandek, o‘sha xudbin va vijdotsiz kimsalarga qarata tosh otgandek bo‘ladi hayolida. Darhaqiqat, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ham shu aslida: vijdonli mansab egalarini topish, o‘z ishiga sidqidildan yondashadigan, xalq manfaatlarini o‘zini ustun qo‘yadigan yuqori qatlam vakillari, afsuski, bugungi kunda ozchilikni tashkil etadi. Jamiyatimiz bunday insonlarga to‘la ekan, shoir aytganidek “mangu qovjiragan haqiqat labi” hech qachon haqiqatdan suv icholmaydi. Odatda, “qovjiramoq” so‘zi o‘simliklarga nisbatan aytiladi, qovjiragan o‘simlikning yana hayotga qaytishi juda qiyin holat, ya‘ni qovjirash eng so‘nggi bosqich. Shoir aynan haqiqatga nisbatan ushbu so‘zni qo‘llar ekan, bu orqali hayotimizda haqiqatning o‘rni naqadar quyi darajaga tushib qolganini ta‘kidlamoqchi bo‘ladi, nazdimizda.

Ammo hayot davom etar ekan, umid atalmish najot bor. Shu sababli ham ijodkor haqiqatni “o‘ldi, yo‘q bo‘ldi” deya qalamga olmaydi. Chunki hayotda shoir singari haqiqatga intiluvchi, qo‘shirnoq ichidagi ayrim jamiyat vakillarining qobig‘iga bo‘ysunmaydigan, shoir tili bilan aytganda, har qanday haqiqatga zid bo‘lgan chegarani buzishdan zavqlanadigan qalb egalari bor ekan, albatta, haqiqat o‘lmaydi:

*Deysiz: “Haddingni bil, har so‘z xavflidir”
Faqat shu sizdagi bor bunyodkorlik.
Menga chegarani buzmoq zavqlidir,
Sizga esa zavqli ehtiyotkorlik.*

Yuqorida nomlarini sanab o‘tgan she‘rlarimiz ichida “Buzoqning o‘limidan so‘ng”⁶ hamda “Oltin qo‘zichoq”⁷ kabi she‘rlarda shoir insoniylik, mehr-shavqat kabi tuyg‘ularni insonlarga eslatgandek qalamga oladi goho.

⁵ Шукуров Э. Соchlari сумбул-сумбул. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. –Б.8

*Uch kunlik buzog‘i o‘lgan sigirni
Sog‘ib olayotir befarzand xotin.
Tuyog‘i zirqirab yig‘laydi jonvor,
“Ho‘sh-ho‘sh”lab kuylaydi qayg‘uli xotin.*

She‘rning birinchi bandini o‘qigan kitobxonning hayolidan birinchi bo‘lib xalqimiz orasida keng tarqalgan “Tanasi boshqa dard bilmas” maqoli o‘tadi. Bu maqolning ma‘nosini yuzaga chiqaruvchi so‘z “befarzand” so‘zidir. Modomiki ijodkor shunchaki “ayol” so‘zining o‘zining ishlatganda, asosiy anglashilishi kerak bo‘lgan ma‘no yuzaga chiqmay qolardi. Ammo Eshqobil Shukur so‘z gavharlarini har doimgidek noziklik bilan teradiki, she‘rdagi butun mazmun shu orqali yuzaga chiqadi. She‘rning qolgan bandlarini o‘qir ekanmiz, yangi ma‘nolar va mazmunlarning qurshovida qoladi kishi, ya‘ni aslida ayol u qadar dardsezmas, beshavqat emas, u ham sgir jonivorga achinadi (biz uning sigirga: “ho‘sh-ho‘sh enam-ov, ho‘sh kabi achinib, "enam" deb murojaat qilgan undalmalaridan anglashimiz mumkin), biroq jonivor tanasida va ruhida chekkan dardni, iztiroblarni, bolasini dunyoga keltirish qanchalar qiyin bo‘lsa, undan ayrilish undan-da azob ekanligini o‘z vujudida his qilmaydi. Shuning uchun ham jonivor chekayotgan azoblarga beparvodek. Keyingi misralarda ijodkor befarzand er-xotinning xonadoni jimjit va befayz holda ekanligini tasvirlash vositasida oilaning ichki holatini uy timsolida yoritib beradi.

Ushbu asar tashqaridan insonlarning hayvonlarga munosabatini ko‘rsatish maqsadida yozilgandek tuyulsa-da, uning asl mohiyati hayvonga ham insonga ham farzand birdek aziz va qadrli ekanini, bolalar hayot mazmuni ekanligini uqtiradi:

*Hovlida huvillar besh xonali uy...
Guvillab ko‘payib borar chumoli...
Uzoqlashib borar xotin bilan er,
Bir yayrab kulishga yetmaydi holi.*

Shoirning keyingi “Oltin qo‘zichoq” she‘rida insoniyatning hayvonlarga bo‘lgan yomon munosabati aks etadi. Ya‘ni yangi tug‘ilgan qo‘zichoqni onasi bag‘ridan tortib olib, uni so‘yishadi. she‘rni o‘qigan har bir she‘rxon qalbida shu o‘rinda o‘sha insonlarga bo‘lgan nafrat tuyg‘usi uyg‘onishi tabiiy. Ammo inson, avvalo, o‘ziga nazar solmog‘i, bugungi kunda qilgan va qilayotgan har bir ishini, harakatini taftish etmog‘i lozim. Aslini olganda, bugungi kundagi dunyoning turli nuqtalaridagi qonli urushlar, yertalab, dunyotalablarning ahmoqona mo‘jorolari, diniy kelishmovchiliklar, irqchilik, “men ustun sen past” qabilidagi tafakkur doirasi qashshoq insonlarning qilmishlari sababli “Hazrati Inson” nomiga katta dog‘ tushmoqda. Shoir ushbu she‘ri orqali faqatgina qo‘zichoqni nobud qilgan odamlarni qoralamayapti – u butun insoniyatni insoniylikka chaqiryapti! She‘rning so‘nggida sovliq quyidagicha tasvirlanadi:

*Oltin qo‘zichoqning so‘yilar chog‘i
Bo‘ri bo‘lgisi keldi sovliqning,
Yo‘lbars bo‘lgisi keldi...*

⁶Шукуров Э. Хамал айвони. –Тошкент: Шарк, 2002. –Б. 88.

⁷Shu kitob.–Б.98.

Baliq bo'lgisi... Chumoli...

Fil bo'lgisi keldi sovliqning...

Qoplon bo'lgisi keldi...

Qurbaqa bo'lgisi...

Chuvalchang...

Lekin,

Odam bo'lgisi kelmadi sovliqning.

Odam bo'lgisi kelmadi sira.

Ushbu misralar insonni chuqur o'yg'a toldiradi: Nahotki, odamzod qoplon, yo'lbars, bo'ri singari vahshiy hayvonlardan-da zolimlashib ketdi?! Nahotki, INSON ning darajasi chuvalchang-u baqalarga ham teng ko'rilmadi?! Javob bitta – barcha o'ziga boqsin, qilgan qilmishlariga, so'zlayotgan so'zlariga!

Inson ulg'ayib boraverar ekan, hayotni shunchalik yaxshiroq va teranroq anglay boshlaydi.

Yaxshi-yomonni, past-balandni, to'g'ri va egrini ko'rib xulosa qilib boraveradi. Ba'zida inson o'z o'tmishini, aytgan so'zlarini, dard deb chekkan g'amlarini eslab beixtiyor tabassum qiladi. Chunki hayot borgan sari murakkablashib boraverar ekan, boshida qiyin va murakkab tuyulgan ayrim narsalar vaqt o'tgan sari jo'n hodisaga aylanib qoladi. Ya'ni hayotga hamma ham o'z nigohlari bilan boqadi. Ijodkor aynan mana shu hodisani o'zining bir qancha she'rlarida mahorat bilan tasvirlab beradi:

Qariya: Imonini bersin,

Ko'rinib qolmoqda so'nggi sarhadlar,

Sitilib ketyapmiz keksa ulfatlar.

O'rtayosh: Yoshini yashab, oshini oshadi, lekin,

Pari bilmaganni bilguvchi edi.

Boshimizni qo'shib turguvchi edi.

Yigit: Suyganlar baxtlidir, u chol davrida,

To'y nafasi kelar edi tovushidan...

Bola: Endi eshagini kim minar ekan?..⁸

Ko'rib turganimizdek, shoir bir hodisani talqinini to'rt xil shaklda beradi. Ya'ni kishining muammolari uning yoshiga qarab o'zgaradi. Masalan, bir qariyaning o'limidan so'ng boshqa bir yoshi ulug' qariya o'ziga xulosa chiqaryapti: o'zining umri ham poyoniga yetayotganini ta'kidlamogda (*Ko'rinib qolmoqda so'nggi sarhadlar*). O'rta yoshli insonda esa bu holat sal boshqacharoq, ya'ni uning so'zlarida havas hissiga o'xshash bir ohang bor: "Yoshini yashab oshini oshadi, lekin" bu jumladan "Bizga ham shuncha umr ko'rish nasib etarmikan" degan mazmun bor, nazarimda. Bundan tashqari o'rtayosh qalbida biroz qayg'u ham bor, ya'ni "Sitilib, to'zib ketgan birodarlarni boshini qo'shib turadigan odam edi Rahmatli" demoqchi. Yosh yigitning ko'nglidagi achinishning sababi esa mutlaqo boshqacha. Ya'ni sevgi-muhabbatga to'lgan qalbida bezotalik bor: "Suyganlar baxtlidir, u chol davrida, To'y nafasi kelar edi

⁸ Шукуров Э. Сочлари сумбул-сумбул. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. –Б.26.

tovushidan...” Bundan anglashiladiki, qariya o‘z davrida sevishgan qalblarni birlashtirish tarafdori bo‘lgan, to‘ylariga bosh-qosh bo‘lib xizmat qilgan. Shuning uchun ham kelajagidan xavotir olgan yigit hayolida faqat shu o‘ylar kezmoqda. She‘rning so‘nggi misrasini o‘qir ekanmiz, bolakayning birgina jumlasidan yuzimizga tabassum yuguradi: “Endi eshagini kim minar ekan...” Shoir birgina shu jumla orqali bolalarga xos xarakter-xususiyatni to‘laqonli ochib bera olgan. Ya‘ni bolaga o‘yindan ham qiziqroq hech narsa yo‘q bu olamda, na ayriliq, na sevgi!

She‘rni tahlil qilar ekanmiz, ijodkorning jo‘n so‘zlarni buyuk ma‘nolarga kalit o‘laroq qo‘llaganining guvohi bo‘lamiz. Darhaqiqat, shoir ikki band she‘r orqali butun bir hayot falsafasini ko‘z oldimizda namoyon qilganiga qoyil qoladi kishi!

Shoirning navbatdagi falsafiylikka yo‘g‘rilgan she‘rlaridan biri bu “Hamal ayvoni” turkumidan joy olgan “O‘lim va dunyo” she‘ridir. Ushbu she‘rda shoir an‘naviy falsafani, ya‘niki, barcha narsa bir kuni o‘z nihoyasiga yetishini, hech kim va hech nima abadiy emasligi va bu hayotdan kech kim hech nima olib keta olmasligini yana bir bor ta‘kidlagan. She‘rda lirik qahramon o‘limga qarata hayrat ohangida so‘zlaydi:

*Qanday kuchsan? Shonga botganlar
bir hukming-la yiqildi, yitdi.
Yerni to‘pday dumalatganlar –
dunyodolar dunyosiz ketdi.
Qanday kuchsan? G‘amga botganlar
suyagiga zorlarin bitdi.
Qayg‘udan baxt so‘rab o‘tganlar –
dunyotorlar dunyosiz ketdi⁹.*

She‘rni o‘qir ekanmiz, inson dunyoda qanchalik shuhrat, obro‘- e‘tibor, mol-davlatning ortidan quvsa, shunchalik o‘zini, o‘zligini, aslini yo‘qotadi degan xulosaga kelamiz, va eng ayanchlisi o‘limning birgina hukmi butun umr davomida yig‘ilgan barcha narsalarni shamolga sovuradi, ketadi.

She‘rda shoir “*dunyodor*” va “*dunyotor*” kabi hali hech qayerda qo‘llanilmagan asos va qo‘shimchani yangi qo‘shilmasini mahorat bilan qo‘llaganki, shoir ijodining yana bir qirrasini shu o‘rinda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bolalik mavzusi Eshqobil Shukur ijodidagi e‘tiborli mavzulardan biridir. Shoirning o‘zi bolalik haqida shunday deydi: “Insonga bolalik kabi ta‘sir ko‘rsata oladigan davr yo‘q. Chunki shu davrda insonning ma‘no olamining poydevori tashlanadi. Keyingi jarayonlarning barchasi poydevorning qanday bo‘lishi bilan bog‘liq”¹⁰. Darhaqiqat, bolalik inson hayotida o‘chmas iz qoldiradi. Yoshi ulug‘ bobo-momolar ham umri davomidagi voqea-hodisalarni unchalik esga olmasa-da bolalik esdaliklarini hech qachon unutishmaydi. Shoirning “Baxtning o‘lchovi”, “Ulg‘ayish”, “Olapar” nomli she‘rlarida bolalik taassurotlari, xotiralari, bolalikning naqadar beg‘ubor ekanligi kuylanadi. Shoirning “Olapar” nomli she‘riga yuzlansak:

⁹ ШукуровЭ. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 60.

¹⁰ https://t.me/Eshqobil_Shukur_ijodi

*Olaparni shundoq ko'zim oldida
Otdilar – do'stini bolaligimning...
Onam o'rgatganday: "Rozi bo'l" dedim,
Shu ilk bor rozilik so'rashim mening.
Jigarrang, alamlilik ko'zlarin tikib,
Olapar vidolar aytarkan beso'z...
Birdan o'q otildi. Ortga burildim –
Yelkamga qadalib qoldi ikki ko'z.
Yillar o'tib ketdi. O'z o'tmishim bor –
Kechganim goh dushman, goho do'st bilan.
Men endi qarayman bolaligimga
Yelkamga qadalgan bir juft ko'z bilan¹¹.*

Hammaning bolaligida qadirli nimasidir bo'ladi. O'yinchoq, qo'g'irchoq, daraxt, uy va hokazo narsalar bo'lishi mumkin. Demak, shoirning o'sha qadrli narsasi Olapar nomli it bo'lgan.

Shoir ushbu she'rni qalbidagi haqiqiy kechinma va iztiroblar bilan yozadi. Biz she'rni o'qir ekanmiz, go'yoki Olaparning o'limi bilan shoirning bolalik davrlari ham o'z nihoyasiga yetgandek tuyuladi o'quvchiga.

*Onam o'rgatganday: "Rozi bo'l" dedim,
Shu ilk bor rozilik so'rashim mening.*

Biz bilamizki, rozilik, odatda, xayrlashadigan kishilardan so'raladi, buni shoir bolaligidayoq yaxshi bilgan (Onam o'rgatganday). Ammo e'tiborimizni ikkinchi misraga, ya'ni bu mening ilk bor rozilik so'rashim edi, deya ta'kidlangan nuqtaga qaratishimiz lozim. Bundan anglashiladiki, lirik qahramon toki Olapargacha hayoti davomida hech kim bilan xayrlashmagan, vidolashmagan. Mana shu holat ham bola ruhiyatida o'z ta'sirini qoldirgan – bir umr esdan chiqmaydigan hodisa sifatida. Shoir o'zi ta'kidlaganidek "bolaligining do'sti" bilan ayrilishar ekan, ortiq bardosh bera olmadi, darhol ortga burildi. Burildi-yu bolaning ko'ngli do'stida, Olaparning ko'zlari esa manguga shoirning yelkalarida qolib ketti:

*Men endi qarayman bolaligimga
Yelkamga qadalgan bir juft ko'z bilan..*

Eshqobil Shukur ijodi mislli ummon. Undan har kim o'z qodirligi qadar dur-u javohirlar teradi. Biz tafakkurimiz qodir bo'lganga qadargina bu she'rlarning ma'nosini tahlil qilishga harakat qildik. Aslida, bu dengizning tubida ko'zimiz ilg'ay olmagan javohirlar haddan ziyoda. Eng muhimi, shoir bu ma'nolar ummonida suzishdan baxtiyor, Ustozlar yo'lidan ketishdan mamnun. Quyidagi sehirlil misralar esa fikrimizning yaqqol isboti bo'la oladi, albatta:

*Ko'hna shodliklarning yangi bazmida
Hayol oqshomida seni qutlayman.
Mirtemir hasrati, Oybek nazmida
Ko'nglim siniqlarin qayta butlayman.
Oyni sog'inlarlar bordir olamda,*

¹¹ ШукуровЭ. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарк, 2002. –Б. 60.

*Yulduzlar shivirin tinglovchilar bor.
Yalpiz bo'yin sezib jon chiqar damda,
Payg'ambar xabarin anglovchilar bor.
Hech qanday hayot yo'q qalbdan narida
Hech qanday o'lim yo'q ko'ngildan nari...
Mirtemir osmoni, Oybek yerida
Yashaging keladi yashagan sari¹².*

Eshqobil Shukur

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002.
2. Шукуров Э. Сочлари сумбул-сумбул. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988.
3. Ёқубов О.Карвон қўнғироғи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –Тошкент,1988.
4. Bahodir Karim. Istiqlol adabiyoti: nazm va nasr. – Toshkent, 2021.

¹² @Eshqobil_Shukur_ijodi